

UDK:635.1 /9.

**DORIVOR NAMATAK (ROSA)
O'SIMLIGINI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI**

Abdurahmonov Muhammadmo'ydin Bohodirjon o'g'li¹

Yulbasov Avazbek Muhtarovich²

Nazirjonov Ibrohimjon Anvarjon o'g'li³

Inomjonov Shuhratbek Ne'matjonovich⁴

[muhammadmoydinabdurahmonmov@gmail.com¹](mailto:muhammadmoydinabdurahmonmov@gmail.com)

[avazbekakayulbarsov@gmail.com²](mailto:avazbekakayulbarsov@gmail.com)

[nazirjonovi@mail.ru³](mailto:nazirjonovi@mail.ru)

[shuhratinomjonov7@gmail.com⁴](mailto:shuhratinomjonov7@gmail.com)

O'rmon xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti

Andijon filiali ilmiy xodimlari

Annotatsiya: Ushbu maqolada Namatak (Rosa) o'simligining dorivor ahamiyati, agrotexnik talablari, er tayyorlash, urug'ni ekish, parvarishlash jarayonlari va hosil olish texnologiyasi yoritilgan. Sog'lom va yuqori samarali o'simlik etishtirishda agrotexnik tadbirlarning muhim jihatlari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Namatak (*Rosa canina*), dorivor o'simlik, urug', stratifikatsiya, tuproq tayyorlash, agrotexnik tadbirlar, ekish texnologiyasi, hosildorlik

Abstract: This article provides information about the origin and medicinal properties of the Namatak (*Rosa*) plant, along with the procedures for preparing soil and seeds for cultivation. It describes in detail the process of sowing stratified seeds into pre-prepared soil. The article emphasizes the importance of following proper agrotechnical practices to achieve high efficiency in the cultivation of this medicinal plant.

Keywords: Namatak (*Rosa canina*), medicinal plant, seed, stratification, soil preparation, agrotechnical measures, planting technology, yield.

Namatak (*Rosa*) – Rosaceae (Atirguldoshlar) oilasiga mansub, dorivor xususiyatlari bilan qadrlanadigan buta turidir. Uning mevalari (itburunlar) vitamin C, flavonoidlar, organik kislotalar, pektin va boshqa biofaol moddalarga boy. U xalq tabobatida immunitetni mustahkamlovchi, shamollashga qarshi va siydik haydovchi vosita sifatida ishlatiladi. Dorivor o'simliklarning deyarli barcha qismidan xususan: quritilgan poyasi, kurtagi, ildizi, ildizpoyasi, tunganagi, piyozi, po'stlog'i, bargi, guli, g'unchasi, mevasi (urug'i), danagi, sharbati, qiyomi, toshchoyi, efir moyi va boshqalardan ko'plab dori-darmon sifatida foydalanib kelinmoqda. Ko'p izlanishlar oqibarida hozirgi vaqtda juda ko'p dorivir o'simliklar aniqlanib ularni tarkibi tekshirilib tabobatda juda ko'p kasalliklarga qarshi foydalanib kelinmoqdan. Dorivor namatak o'simligini etishtirish uchun erlarni tayyorlash ishlari amalga oshiriladi bunda Tuproq: Namatak qumloq, qumoq va yaxshi qurigan, ozuqa moddalarga boy tuproqlarda yaxshi o'sadi. Tuproq pH darajasi 6,0–7,5 bo'lishi tavsiya etiladi. Yerni kuzgi va bahorgi ishlov berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Bunda tayyorgarlik: Chuqur (25–30 sm) shudgorlash orqali er yaroqli holga keltiriladi. Begona o'tlar yo'qotiladi, zarur hollarda dezinfeksiya qilinadi.

1 - jadval

Tuproq tayyorlash bosqichlari

Bosqich	Izoh
Tuproq tanlash	Yengil qumoq, unumdor, yaxshi qurigan tuproqlar tanlanadi (pH 6.0–7.5).
Kuzgi tayyorgarlik	25–30 sm chuqurlikda shudgorlash, begona o‘tlarni yo‘qotish.
Bahorgi ishlov	Yerni maydalash, tekislash, sug‘orish tizimini tayyorlash.
O‘g‘itlash	Organik va mineral o‘g‘itlar kiritish (30–40 t/ga go‘ng, fosfor va azotli o‘g‘itlar).

Bahorgi ishlov: Yerni maydalash, tekislash, ag‘darish va ehtiyojga ko‘ra sug‘orish tizimini tayyorlash ishlari bajariladi. O‘g‘itlash: Gektariga (1 ga erga) 30–40 tonna organik go‘ng, 100–120 kg fosforli va 60–80 kg azotli o‘g‘itlar kiritiladi. Bu bilan namatak o‘simligini yaxshi rivojlanishi va xosildorligi yaxshi bo‘lishiga kata zamin yaratadi.

2-jadval

Agrotexnik tadbirlar taqvim

Tadbir	Davr	Izoh
Yer tayyorlash	Kuz–bahor	Shudgorlash, tekislash, o‘g‘itlash
Urug‘ stratifikatsiyasi	Qish	3–4 oy davomida nam qumda 3–5°C haroratda
Urug‘ ekish	Bahor (mart–aprel)	Stratifikatsiyadan chiqqan urug‘lar 1–2 sm chuqurlikda

Sug'orish	Bahor– yoz	Vegetatsiya davrida 7–10 kunda bir marta
O't tozalash	Bahor– yoz	Begona o'tlarni yo'qotish
O'g'itlash	Bahor– yoz	Azotli va mikroelementli o'g'itlar bilan
Meva yig'imi	Kuz (sentabr– oktabr)	Qizargan mevalarni qo'lda terish

Dorivor namatak o'simligini etishtirishda erlarni kuzda tayyorlash bilan agrotehnik tadbirlar boshlanadi, urug' tayyorlash va ekishda avvallo urug'larni stratifikatsiya urug'lar 3–4 oy davomida 3–5°C haroratda nam qum ichida saqlanadi. Bu usul urug'ning unuvchanligini keskin oshiradi va namatak uruglarini ekish vaqti bahor oylarida amalga oshiriliadi. Urug' ekish vaqtida tuproq harorati 10–12°C tashkil qilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Kuz oylarida terilgan urug'larni stratifikatsiya qo'uyladi va stratifikatsiyadan olingan urug'lari 1–2 sm chuqurlikda ekiladi. Uruglarini ekib bo'lgach imkon qadar sug'orish ishlarini tashkil qilish kerak. Parvarishlash tadbirlari Sug'orish Nihollar unib chiqqandan so'ng 7–10 kunda bir marta sug'oriladi. Vegetatsiya davomida ehtiyojga qarab davom ettiriladi. Begona o'tlardan tozalash nihollar zaif davrida begona o'tlar muntazam yo'qotiladi.

XULOSA

Namatak (*Rosa*) o'simligini etishtirish jarayonida tuproqni to'g'ri tanlash va tayyorlash, urug'larni stratifikatsiyalash, ekish muddatlariga amal qilish, sug'orish va o'g'itlash kabi agrotehnik tadbirlarni puxta tashkil etish yuqori hosildorlik va sifatli dorivor xomashyo etishtirish uchun muhim omillardandir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, biologik xususiyatlari va tuproq-iqlim sharoitlariga mos tarzda agrotehnik choralar qo'llanilganda, Namatak o'simligidan barqaror hosil olish imkoniyati oshadi.

Kelgusida bu o'simlikni ko'p miqdorda etishtirish, dorivor mahsulotlar ishlab chiqarishda mahalliy xomashyoni keng joriy etish imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.K.Tashxanov "O'zbekiston florasidagi dorivor o'simliklar", Toshkent, 2016.
2. B.Xasanov, B.Nishonov "Dorivor o'simliklar agrotehnologiyasi", Samarqand, 2020.
3. Tojiev N. "Botanika va farmakognoziya", ToshPTI, 2019.
4. Kholmatov M. va boshqalar. "Tuproqshunoslik asoslari", Toshkent, 2018.
5. T.A.Djuraev "Агротехнологии лекарственных растений в Узбекистане", Tashkent, 2022.
6. Internet manbalari:
 - www.agro.uz
 - www.sciencedirect.com (Rosa canina related research)
 - www.plantarium.ru